



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

O‘ZBEKISTON TURIZM LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
INNOVATSIYALARNING ROLI

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ЛОГИСТИКИ
УЗБЕКИСТАНА

THE ROLE OF DIGITAL INNOVATIONS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM
LOGISTICS IN UZBEKISTAN

Teshabayeva Odina Nasridinovna dotsent, i.f.f.d., PhD
Oltiboyeva Mehrigon Allamurot qizi magistrant,
iqtisodiyot fakulteti, FarDU

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonda turizm sohasida logistika biznes jarayonlarini raqamli va innovatsion mexanizmlar asosida takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan. Unda turizm va transport-logistika infratuzilmasining joriy holati tahlil qilinib, so‘nggi statistik ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mobil ilovalar, elektron bron tizimlari, IoT, AI, blockchain va Big Data kabi texnologiyalarning turizm logistikasida qo‘llanishi yoritilib, transport-logistika jarayonlarini integratsiyalash hamda xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, logistika, raqamli texnologiyalar, innovatsion mexanizmlar, smart tourism, e-Visa, Big Data

Данная статья посвящена вопросам совершенствования логистических бизнес-процессов в сфере туризма Узбекистана на основе цифровых и инновационных механизмов. В ней проанализировано текущее состояние туристической отрасли и транспортно-логистической инфраструктуры, а также приведены последние статистические данные. Кроме того, в статье рассматривается применение таких технологий, как мобильные приложения, системы электронного бронирования, IoT, AI, blockchain и Big Data в туристической логистике, а также предлагаются практические рекомендации по интеграции транспортно-логистических процессов и повышению качества услуг.

Ключевые слова: туризм, логистика, цифровые технологии, инновационные механизмы, smart tourism, e-Visa, Big Data

This article is devoted to improving logistics business processes in Uzbekistan’s tourism sector through digital and innovative mechanisms. It analyzes the current state of the tourism industry and transport-logistics infrastructure, and presents recent statistical data. The article also examines the application of technologies such as mobile applications, electronic booking systems, IoT, AI, blockchain, and Big Data in tourism logistics. In addition, it provides practical recommendations for integrating transport and logistics processes and improving service quality.

Keywords: tourism, logistics, digital technologies, innovative mechanisms, smart tourism, e-Visa, Big Data

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi jahon xo‘jaligining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, turizm logistikasini samarali tashkil etish va boshqarish turistik xizmatlar sifati, sayyohlar oqimi hajmi hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar transport, joylashtirish, axborot almashinuvi, bronlash va xizmat ko‘rsatish zanjirlarini optimallashtirish orqali turizm logistikasining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida elektron bronlash tizimlari, mobil ilovalar, “aqli logistika” (smart logistics), GIS texnologiyalar, big data va sun‘iy intellekt asosida sayyohlar oqimini boshqarish mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tirof etilgan. Bu esa turizm logistikasida vaqt va xarajatlarni qisqartirish, xizmatlar shaffofligini oshirish hamda sayyohlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida transport va logistika tizimlarini raqamlashtirish, elektron to‘lovlar, onlayn monitoring va integratsiyalashgan axborot platformalarini joriy etish belgilangan bo‘lib, mazkur vazifalar turizm logistikasining innovatsion rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, turistik yo‘nalishlar bo‘yicha transport harakatini optimallashtirish, elektron chipta va yagona axborot tizimlari orqali xizmatlar ko‘rsatish turizmning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, O‘zbekistonda turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.[2]

Turizm logistikasi — bu turistlarning harakati, ularni tashish, joylashtirish, oziqlantirish, axborot bilan ta‘minlash va boshqa xizmatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan kompleks tizimdir. U nafaqat transport tarmoqlarini, balki xizmat ko‘rsatish, kommunikatsiya va axborot infratuzilmasini ham o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda raqamli va innovatsion yechimlar ushbu jarayonlarni optimallashtirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonning turizm sohasi so‘nggi yillarda tez rivojlanmoqda. 2023-yil statistikasiga ko‘ra, mamlakatga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni 8,3 millionni tashkil etdi. Ichki turizm qatnashgan fuqarolar soni esa 15 millionni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar turizm infratuzilmasining, jumladan, transport-logistika xizmatlarining ahamiyatini oshiradi.[5]

Turizm turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: dam olish (rekreatsion) turizm, madaniy (kognitiv) turizm, diniy (ziyosat) turizm, biznes turizm (MICE), ekstremal turizm, sog‘lomlashtirish (meditsina) turizmi, sport turizm, agrar (qishloq) turizmi, ta‘limiy (education) turizm.

Logistika jarayonlari turizm sohasida quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

- sayyohlarning transport vositalari orqali harakatlanishini samarali tashkil etish, ya‘ni avia, temir yo‘l va avtomobil transporti xizmatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash;
- joylashtirish vositalari faoliyatini logistika nuqtai nazaridan boshqarish, mehmonxona va dam olish maskanlarida xizmatlar uzluksizligini ta‘minlash;
- turistik marshrutlarni rejalashtirish va optimallashtirish, sayyohlar oqimini hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash;
- turistik xizmatlar ko‘rsatish jarayonida axborot oqimlarini boshqarish, elektron bronlash, onlayn to‘lov va raqamli axborot tizimlaridan samarali foydalanish;
- logistika xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirish orqali turistik mahsulotning raqobatbardoshligini kuchaytirish;
- turizm infratuzilmasi obyektlari o‘rtasida o‘zaro integratsiyani kuchaytirish hamda hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish.

Turizm logistikasining nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika jarayonlarini optimallashtirish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmatlar samaradorligini oshirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Turizm logistikasining nazariy asoslari logistika fanining umumiy konsepsiyalariga tayanadi. Logistika tizimlari samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish zanjirlarini optimallashtirish hamda transport va axborot oqimlarini boshqarish masalalari D. Bowersox, D. Closs va M. Cooper tadqiqotlarida integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida izohlangan. Ularning fikriga ko‘ra, logistika tizimining samaradorligi transport, axborot va xizmat ko‘rsatish jarayonlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash orqali erishiladi.

Turizm sohasida logistika jarayonlarini tashkil etish masalalari P. Kotler, J. Bowen va J. Makens tomonidan turizm marketingi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Ular turistik xizmatlar tizimini transport, joylashtirish, ovqatlanish va axborot xizmatlaridan iborat o‘zaro bog‘liq kompleks tizim sifatida talqin qilib, logistika jarayonlari turistik mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Turizm logistikasining zamonaviy rivojlanishi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. UNWTO tadqiqotlariga ko‘ra, elektron bronlash tizimlari, mobil ilovalar, big data va sun‘iy intellekt texnologiyalari sayyohlar oqimini boshqarish, transport harakatini optimallashtirish hamda logistika xarajatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili turizm logistikasining samarali tashkil etilishi transport, axborot va xizmat ko‘rsatish tizimlarining integratsiyasiga asoslanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish turizm logistikasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va hududlarning turistik salohiyatini samarali boshqarishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda turizm logistikasini rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Elektron bronlash tizimlari, onlayn to‘lov platformalari va raqamli axborot resurslarining kengayishi turistik xizmatlar logistikasini soddalashtirib, xizmatlar ko‘rsatish tezkorligi va qulayligini oshirdi va ayniqsa, xalqaro va ichki turizm oqimini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari hali to‘liq va tizimli xarakterga ega emasligini ko‘rsatadi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, turizm logistikasida raqamli texnologiyalar asosan bronlash va to‘lov bosqichlarida faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, transport harakati monitoringi, yuklama prognozi, turistik marshrutlarni intellektual boshqarish kabi yo‘nalishlarda ularning imkoniyatlari yetarlicha to‘liq ishga solinmagan. Bu esa logistika tizimining umumiy samaradorligini cheklovchi omil sifatida namoyan bo‘lmoqda.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm logistikasini raqamlashtirish jarayoni boshlangan bo‘lsa-da, u hali to‘liq va tizimli xarakter kasb etmagan. Ayni paytda raqamli texnologiyalar asosan elektron chipta va bronlash xizmatlarida qo‘llanilmoqda, biroq logistika zanjirining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan tizimlar yetarlicha shakllanmagan.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, yirik turistik markazlarda raqamli logistika elementlari faol joriy etilayotgan bo‘lsa, chekka hududlarda bu jarayon sekin kechmoqda. Bu holat turistik oqimlarning notekis taqsimlanishiga va mavjud turistik salohiyatdan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

1-jadval

Raqamli texnologiyalar asosida turizm logistikasini takomillashtirish yo‘nalishlari [3]

No	Raqamli texnologiya	Qo‘llanish sohasi	Asosiy funksiyasi	Kutilayotgan natija
1	Mobil ilovalar	Sayyohlar oqimini boshqarish	Onlayn bron, navigatsiya, xizmatlar haqida axborot	Sayyohlar uchun qulaylik va tezkorlik
2	Elektron bron tizimlari (E-booking)	Mehmonxona va transport xizmatlari	Real vaqt rejimida band qilish va to‘lov	Xizmatlar samaradorligini oshirish
3	AI (Sun‘iy intellekt)	Talab prognozi va marshrut optimallashtirish	Ma’lumotlar tahlili va prognozlash	Xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirish
4	Big Data	Turistlar xulq-atvorini tahlil qilish	Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash	Marketing va logistika qarorlarini takomillashtirish
5	Blockchain	To‘lov va shartnomaviy jarayonlar	Shaffof va xavfsiz tranzaksiyalar	Ishonchlik va xavfsizlikni ta’minlash
6	CRM tizimlari	Mijozlar bilan ishlash	Mijozlar ma’lumotlar bazasi dasturlari	Mijoz qoniqishini oshirish
7	Raqamli xaritalar, GPS	Transport-logistika boshqaruvi	Marshrutlarni optimallashtirish	Vaqt va yoqilg‘i tejilishi

Shu bilan birga, jadvalda keltirilgan raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari turizm logistikasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, big data va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali sayyohlar oqimini prognozlash, transport yuklamasini muvozanatlashtirish va logistika xarajatlarini kamaytirish imkoniyati mavjud. Olib borilgan tahlil O‘zbekistonda turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni kompleks va tizimli joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizm logistikasini rivojlantirish va takomillashtirishda raqamli hamda innovatsion mexanizmlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm sohasida transport, joylashtirish, axborot va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining murakkablashuvi logistika tizimlarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida tashkil etishni talab etadi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar logistika zanjirlarining uzviyligini ta‘minlash, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda turizm logistikasini raqamlashtirish bo‘yicha muayyan huquqiy, institutsional va texnologik asoslar shakllangan bo‘lsa-da, ularning amaliy tatbiqi hali yetarli darajada tizimli va kompleks tus olmagan. Hududlar o‘rtasida raqamli logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasidagi tafovutlar, axborot tizimlari integratsiyasining sustligi hamda kadrlar salohiyatining yetarli emasligi mazkur sohaning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Djalilov, R., & Turaeva, N. (2022). Digital Transformation in Uzbekistan’s Tourism Industry., Vol. 4(2), pp. 55–64.
2. Mirzayev A.T., Oltiboyeva M.A. O‘zbekistonda transport-logistika tizimining turizm sohasidagi o‘rni va istiqbollari. — Farg‘ona: FarDU nashriyoti, 2023.
3. Teshabayeva, O., & Hamidova, S. (2023). The Importance of Labor Productivity in Increasing the Economic Efficiency of Industrial Enterprises. *Journal of Marketing and Emerging Economics*.
4. Nasriddinova, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 98-103.
5. Statistika qo‘mitasi. (2024, 15 yanvar). In January–December 2023, 6.6 million foreign citizens visited Uzbekistan.